



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

Maxsus son.

Tahrir hay'ati:

- Baxtiyor SAIDOV
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONOQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'liqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zukumor MIRZAYEVA
Qo'zqo'yoq YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliyeva MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@ramail.uz
web-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olinadi, deb izohlanishi shart.

Jurnaldan nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat maqomi nazariy mavzuni kelmaydigan fikr-mulohazalari hisoblashi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'yilmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Biometroning. 2022.25.06. da topshirildi. O'fset usulida chop etildi. Oq-ov bichimi 60x8418. Shartli bosma tabiiy 6,0. «Axlal» garniturasi. 10, 11 kepl. «ECO TEXTILE PRODUCTIONS» MCHJ boshqaruvida chop etildi. Manzil: Tashkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Bayramta. Adadi 200 nusxa. Bahosi kelishilgan tarafdin.

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

jurnali

REPUBLIKANING ILMIY-METODIK JURNALI

1991-yildan chiqqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПЕРИОДАВАЖИТЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE

TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

G'afurjon Muxamedov. Toshkent viloyati chirchiq davlat pedagogika instituti – 5 yoshda 2

DOLZARB MASALA

Rayxon Rasulova. Og'zaki va yozma nutq – komillik belgisi 7

ILG'OR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR

Feruz Murodova. Maktab adabiyot darslarida hikoya janri o'qitish texnologiyasi 7

Sarvinoz Berdiyeva. O'quvchilarda matn bilan ishlash va tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari 8

Ruxsora Murodova. ona tili ta'limida nostandart testlardan foydalanish usullari 11

Tojixon Sahitova. Maqolalar badiiyatiga doir 12

Sirdaryoxon O'tanova. Adabiy qahramonlar ruhiyati va tasvir mustahkamligi 14

TAHLIL

Mohizhar No'monova. Hamid Olimjon lirikasida epitetning semantik-stilistik xususiyatlari 16

Gulmira Komilova. Tilshunoslikda lingvokulturologiya 18

Nilufar Ataqulova. O'tkir Hoshimov ijodida arab yaratish mahorati 20

Umida SHERMATOVA. Tabiiqlashtirilgan adabiyot ta'limida binar nuqtaza metodi 22

O'tkir Islamov, Gulzoda Bekmuratova. Madaniy nutq – behalo ma'naviy boylik 22

Adiba Davlatova. So'zning asl ma'nosini – shoirning asl dardi 24

Nodira Xoliqova, Humoyun Umaraliyev. Komil inson masalasi – jamiyat masalasi 28

Iroda Xoliqulova. Hamza Hakimzoda niyoziyning dramalarida monologik nutqning o'rni 30

Nizomiddin Bozorov, Ulug'oy Chorfiyeva. Dramatik asarlarda makon, zamon va badiiy tilning komparativ qiyralari 32

Bahoroy Eshmanova. Ingliz va o'zbek maqollarning kognitiv-epizod tahlili 34

Ziyoda Usmonova. Ta'lim tizimiga oid kutuzatish, tahlillar va ta'kidlar 36

Gulshodaxon Tojiboyeva. Abdulla Qodiriy va zamondoshlari ijodida ayollar obrazining mustahkam jihatlari 38

Emina Achilova. O'tkir Hoshimovning "urushning so'nggi qurboni" hikoyasida psixologik tasvir 40

Musajjan Tadjibayev. Germaniyatilda psixologik talqin muammolari 42

TADQIQOT

Hoshimjon Quchoqorov. Tarjimon, tarjima va matn 44

Nafisa Rahmanova. Nizomiy va Navoiyning ota-o'g'il munosabatlari haqidagi qarashlari 46

Laylo Xasanova. Navoiy lirikasida obrazni ifoda etishda ritm va mazmun uyg'unligi 49

Arofotay Muynidina. O'zbek milliy uyg'unlash adabiyoti vakillari ijodida muvaffaqiyatli san'ati 51

Mohibul Mavlonova. "Farhod va Shirin" dostonida shopur obraz talqini 53

Nizomiddin Bozorov, Mohira Hayitova. Samiyatning teran badiiy ifodasi 55

Ra'no Xayrullayeva. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish, nutqning o'stirish yo'llari va vazifalari 58

Nafisa Muratova. Maktabda tarixiy so'zlar mavzusini o'qitishning o'ziga xos usullari 60

Abdushukur Shofqorov. "O'zbek tilining izohli lug'ati" dagi dialektal so'zlar 63

Rahmatilla Norbekov. Mung'liq qalbar kuychisi 65

KICHIK TADQIQOT

Qodirjon Mo'ydinov. Sud nutqi lektsiyasidagi o'zlashma so'zlar 67

Shahnoza Azimjonova. Akademik Naim Karimovning ijodkor portretini tarixiy jarayon zaminida o'rganish mahorati 69

Xosiyat Abdug'ahhorova. Mustaqil so'z turkumlarida antisemik munosabatlarning ifodalanishi 70

Dildora Yorbulova. Hamza hakimizda niyoziyning ashularida xotin-qizlar mavzusi 72

Aziza Avezova. Alisher Navoiy "turkiylar choseri" mi? 73

Nodira Xoliqova. Millat va jamiyatning boshini in'ikosi 76

Hikmat Hikmatov. Adabiyot darsida yangi – xamsa" metodidan foydalanish usullari 78

Xumoyun Umaraliyev. Hamza Hakimzoda Niyoziyning she'riyatida erk va bilim talqini 80

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashridir.

ONA TILI TA'LIMIDA NOSTANDART TESTLARDAN FOYDALANISH USULLARI

Bugungi kunda tilshunoslarda oldida turgan eng muhim masalalardan biri – ona tilini o'rgatishning grammatik qoidalarni bolaning o'zi kashf qiladigan, nostandart mashq va topshiriqlar bilan bog'liq zamonaviy, oson metodikasini ishlab chiqish va takomillashtirishdir.

Dunyoning ilg'or mamlakatlarida ona tili o'qitish metodikasida gapirish (speaking), yozish (writing) kabi mashg'ulotlar, asosan, mashqqa tayanadi, mashq va topshiriq aniq farqlanadi, o'z o'rnida ishlatiladi. Shu sababli ularning til o'rganish kompetentligi yuqoridir. Shuningdek, PISA, PIRLS kabi xalqaro baholash tizimlari orqali ham dunyoning ko'plab davlatlarida o'quvchilarning o'qish savodxonligi bilan bog'liq malakalari alohida sinovdan o'tkaziladi.

Yangi ta'lim maqsadi har bir o'quv predmetidan qanday bilimlarni va qanday ko'nikma va malakalarni talab qiladi, degan savol tug'iladi. Bizning fikrimizcha, o'quvchilarni ona tilida shaxsiy fikrini ravon, adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda ham og'zaki, ham yozma tarzda bayon qila oladigan, aqilij tafakkurini o'stirishga xizmat qiladigan, so'zlarni bir-biriga bog'lab to'g'ri jumla tuza olishga amaliy yordam beradigan nostandart mashq va topshiriqlar asnosida o'zlashtiriladigan, bilimlarni tekshirishda xizmat qiluvchi nostandart testlarni mavjud bo'lgan darslikni yaratish maqsadiga muvofiqdir.

Nostandart test topshiriqlarini tayyorlashda mazmun va shakl asosiy o'rinni egallaydi. Shu sababli, test topshiriqlari mazmunini tanlashda quyida berilgan tamoyil-larga asoslanish maqsadiga muvofiq.

1. Test topshiriqlari mazmuni sinov maqsadiga mosligi tamoyili.

Mazkur tamoyil o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash reyting tizimining nazorat turlarida test topshiriqlarining mazmuni maqsadga muvofiq tanlanishini talab etadi.

2. Nazorat va baholanayotgan bilimlarning muhimligi tamoyili bo'lib, bunda test topshiriq'i savollariga o'quv dasturidagi eng muhim qoida, nazariya, tushuncha va ko'nikmalarni kiritishni talab etadi.

3. Mazmun va shakl birligi tamoyili.

Mazkur tamoyil test topshiriqlarining mazmuni va shakli bir-biriga mos, yaxlitlikni tashkil etishini talab etadi.

4. Test topshiriqlarining mazmunan to'g'riligi tamoyili.

Test topshiriqlariga o'quv kursi mazmunidagi ob'ektiv va haqiqiy bilimlar kiritilishi maqsadiga muvofiq.

5. Test topshiriqlari mazmunida o'quv kursi mazmunining qayta taqdim etilishi tamoyili.

Mazkur tamoyil test topshiriqlarini tayyorlashda o'quv kursi mazmunini to'liq va yetarli darajada qamrab olinishini nazarda tutadi.

6. Test topshiriqlari mazmunining fanning hozirgi zamon holatiga mosligi tamoyili.

Mazkur tamoyil test topshiriqlari mazmunini jamiyatimizda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy qarashlar, huquqiy me'yorlar, fanning o'quv kursi ta'lim mazmuniga kiritilgan fan yangiliklariga moslashni talab etadi.

7. Test topshiriqlari mazmunining majmualari va muvozanatlashgan bo'lishi tamoyili. Mazkur tamoyil test topshiriqlari mazmunini tanlashda maqsadga muvofiqlikni keltirib chiqaradi.

8. Test topshiriqlari mazmunining tizimlilik tamoyili. Mazkur prinsipga asosan, test topshiriqlarining mazmunini tanlashda, mazmun o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishda tizimlilik talablariga javob berishi lozim.

9. Test topshiriq'i mazmunining variativligi tamoyili. Yuqorida qayd etilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, test topshiriqlarining mazmuni ham zamonaviy, ham o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarni o'zlashtirish bosqichlariga mos bo'lishi lozim.

"O'quv topshiriqlari – ta'lim tizimining eng muhim bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. O'quv topshiriqlari murakkab hodisa bo'lib, ularning mohiyati, o'quv-tarbiya jarayonida bajaradigan ishi boshqa pedagogik hodisalar bilan taqqoslab o'rganilgandagina aniqlanadi".

Ana shunday kategoriyalardan biri o'quv materialidir. Masalan, "Darak gap" mavzusini olaylik. Bu o'quv materialini tarkibin quyidagi birliklardan iborat: bilim – axborot, ma'lumot berish maqsadidagi gap; malaka – darak gapni gapning boshqa turlari (masalan, so'roq gap)dan farqlash, darak gapni ijro etish, darak gaplarning oxiriga nuqta belgisini qo'ya bilish; ijodiy faoliyat tajribasi - darak gaplarni matndan topa olish, undan nutqda umumiy foydalanish; metod – fikrni darak gap shaklida bayon qila olish.

Darak gap mavzusida o'quv topshiriqlari tuzilganda, o'quv materialini yangicha shakliga keltiriladi. Masalan, Vatan mavzusida dialog tuzing; dialogdan darak gaplardan foydalangan o'rnlaringizni alohida belgilang; "vatanparvarlik – sadoqat" so'zlari qatnashgan gaplar tuzing kabilar.

O'quv-tarbiya jarayonida o'quv materialini o'zgartirilib test shakliga olib kelinadi. Yanada sodaroq aytganda, o'quv materialini ta'limning aynan olingan maqsadidan kelib chiqib o'zgartiriladi. O'quv materialini o'zgartirish yo'li bilan u bolalarning real o'quv imkoniyatlariga moslashtiriladi.

Nostandart test – ona tilida ta'lim mazmunini o'rgatish (o'qituvchi faoliyati) va o'rganish (o'quvchi faoliyati) ehtiyojiga ko'ra o'quv materialining ma'lum shart asosida o'zgartirilgan shaklidir.

Rang-barang	Ayol
Yassi	Gazeta
Qoramtir	Daraxt

O'quv materialining nostandart test shaklida o'zgar- tirib turilishi ta'lim mazmunining puxta o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga nostandart test bilimlarni tanish va yangi sharoitlarga ko'chirish, ularni amaliyotga tatbiq etishning asosiy vositasidir. Ona tili ta'limiga oid nostandart testlarni bajarish o'quvchilarda nutqiy faoliyat takomillashishiga, nutq ko'nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Binobarin, nostandart test o'quvchida ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan faoliyat turini rivojlantirish va tarbiyalashning bosh omillaridan hisoblanadi.

Ona tilidan nostandart testlarni bajarish jarayonida qator talablarga rioya qilinadi: nostandart testni bajarish uchun zaruriy bilimni o'quvchi o'z shaxsiy bilimlari orasidan izlaydi yoki o'rganilgan bilim va o'zlashtirilgan faoliyat usulini tanish sharoitga tatbiq etadi yoxud bilim va faoliyat usullarini notanish – yangi sharoitda qo'llaydi. Yangi bilim va yangicha faoliyat usullarini egallab borishida xizmat qiladi.

Nostandart test – mustaqil o'rganilgan yangi bilimlarni sinovdan o'tkazishda samarali natija beradi. Sifat so'z turkumiga oid nazariy qoidalarni o'rgatishdan oldin bolalarga shunday nostandart testlar bilan muro- jaat qilish mumkin:

Shirin	Hovli
Go'zal	Olim
Manzarali	Tosh
Devoriy	Qovun
Shinam	Devor
Buyuk	Tasvir

Nostandart testni sifatlarning ma'naviy guruhlari va so'roqlarini qo'llay olgan o'quvchigina bajara oladi. So'z valentliklarini to'g'ri qo'llagan holda so'z birikma- larini tuza olish, hosil bo'lgan so'z birikmalarini nutqda o'rinni qo'llay olish qobiliyatlarini shakllantirish testdan ko'zlangan asosiy maqsadni ifodalaydi.

Testni bajarish, uni qayta tahlil etish yo'li bilan chiqar- rilgan xulosa o'quvchi uchun yangi bilim, mustaqil faoliyat natijasi sanaladi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, bir nostandart testdan turli maqsadlarda foydalanish mumkin. Agar oldin nostandart test o'rganilgan bilimlarga oid bo'lsa, mashq qilish vositasi, agar nostandart test mustaqil xulo- sa chiqarishga mo'ljallangan bo'lsa, ijod qilish vositasi sanaladi. Amaldagi ona tili ta'limida fanning asosiy o'quv materiali – grammatik ma'lumotlar va ularni o'zlashti- rish hamda mustahkamlash uchun berilgan mashq va topshiriqlar hisoblanadi. Aslida bu eskicha yondashuv bo'lib, bugungi zamonaviy ta'lim – grammatik qoidalarga asoslanishni inkor qilmoqda. Shunga asoslangan holda aytilish mumkinki ona tili ta'limining mazmunini faqat ilmiy tilshunoslik masalalari emas, balki hayotning har qanday jabhasida fikrni aniq va lo'nda, ravon va mantiqli tarzda yetkazib berish ko'nikmasini shakllantirish masalasi tashkil etadi. Bu jarayonni yuzaga keltirishda muhim omillardan biri sifatida nostandart testlarni o'quv dasturlari tarkibiga kiritish maqsadga muvofiq sanaladi.

1. Ochiil Roziqov, Meles Mahmudov, Bahtiyor Adizov, Alifjon Hamroyev, "Ona tili didaktikasi", Yangi asr avlodi, Toshkent–2005, 50-bet.

Tojixon SABITOVA,
TVChDPI Gumanitar fanlar fakulteti
O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida f.f.n.dots.

MAQOLLAR BADIYYATIGA DOIR

Maqol - xalq og'zaki ijodining juda ixcham, ammo chuqur mazmunga ega bo'lgan janrlaridan biri bo'lib, u ko'p asrlar davomida xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tajribalarini asosida yuzaga keladi. Maqollar o'zlarining ijtimoiy funksiyalariga ko'ra, asosan keng xalq ommasining, ayrim hollardagina ba'zi ijtimoiy gu- ruhlarning dunyoqarashini ifodalaydi. Mana shuning uchun ham maqollarning tematik ko'lamini juda keng bo'lib, bu ko'lamini juz'y hayotiy voqeelik bilan chegara- lab bo'lmaydi. Ijtimoiy hayotning hech bir sohasi yo'qki, u maqol janrida aks etmagan bo'lsin. Umumiyroq qilib aytganda, maqol ham makoniy, ham zamoniyl jihatdan

voqeelikdagi har qanday sabab-oqibat munosabatlarini o'zida to'liq aks ettiradi.[8,197]

Maqol xalqning ko'p asrlar mobaynida ijtimoiy-iqti- sodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida to'plangan tajribalari, kuzatishlari asosida yuzaga kelgan ixcham, chuqur mazmunga ega bo'lgan og'zaki ijod janrlaridan bo'lib, u eng qadimiy va ommaviy hisoblanadi. Maqollar mehnatkash xalq ommasiniig ma'naviy qiyofasi, idea- li, orzu-umidlari, intilishlari va tabiat, jamiyat hodisalarini haqidagi xulosalari, hukmi va tavsiyalarini mujassam- lashtirgan o'ziga xos badiiy shaklga ega bo'lgan ifoda va iboralarning umumlashmasi ifodasidir. [3,63]